

## TEMIR YO'L CHEGARA BOJXONA POSTLARI ORQALI HARAKTLANAYOTGAN JISMONIY SHAXSLARNING QO'L YUKI VA BAGAJLARINI BOJXONA NAZORATI VA RASMIYLASHTIRUVI JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISH

**Kalimbetova Ulzada**

*Bojxona Instituti magistr tinglovchisi Bojxona xizmati leytenanti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan temir yo'l chegara bojxona postlaridan harakatlanayotgan jismoniy shaxslarning qo'l yuki va bagajlarini bojxona nazorati va rasmiylashtiruvidan o'tkazish jarayoni, uning huquqiy asoslari hamda temir yo'l chegara bojxona postlari orqali harakatlangan yo'lovchilar to'g'risida ayrim ma'lumotlar keltirib o'tildi. Shuningdek, temir yo'l chegara bojxona posti orqali harakatlanayotgan jismoniy shaxslarning qo'l yuki va bagajlarini bojxona nazoratidan o'tkazish jarayonida kuzatilayotgan muammolar o'rganib chiqildi hamda tegishli takliflarva xulosalar berildi.*

**Kalit so'zlar:** *temir yo'l chegara bojxona posti, jismoniy shaxslarning qo'l yuki va bagaji, "Yo'lovchi nomi qaydlari" tizimi, "bagaj vagon", kinologiya xizmati.*

**Abstract:** *In this article, the process of customs control and clearance of hand luggage and luggage of individuals moving from railway border customs posts located in the territory of the Republic of Uzbekistan, its legal basis, and the route through railway border customs posts. Some information about the passengers was given. Also, the problems observed in the process of customs control of hand luggage and luggage of individuals moving through the border customs post were studied and relevant suggestions and conclusions were given.*

**Key words:** *railway border customs post, hand luggage and luggage of individuals, "Passenger Name Records" system, "luggage wagon", dog training service.*

### KIRISH

Bugungi kunda O'zbekiston jahon hamjamiyatiga integratsiyalashish va turizm salohiyatini oshirishga katta e'tibor qaratmoqda. Buning yorqin misoli sifatida "O'zbekiston-2030" strategiyasida<sup>16</sup> xorijiy turistlar sonini 15 millionga yetkazish kelgusi yillarda amalga oshirilishi kerak bo'lgan maqsad sifatida belgilangan. Shularni hisobga olgan holda fuqarolar harakatlanadigan chegara bojxona postlari jahon standartlariga mos ravishda jihozlash va jismoniy shaxslarga nisbatan bojxona nazorat va rasmiylashtiruv jarayonlari soddalashtirilmoqda. Jumladan, xalqaro aeroportlarda "masofaviy bojxona nazorati" tartibi ishga tushirilishi jismoniy shaxslarning ham vaqtini tejatishiga, ham ortiqcha nazorat tartib-taomillarining qisqarishiga olib keldi. Hozirda xuddi shu tartibotni temir yo'l hamda avtotransport chegara bojxona postlarida ham ishga tushirish masalalari ko'rib chiqilmoqda.

<sup>16</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

Temir yo'l chegara bojxona postlari orqali harakatlanadigan jismoniy shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan bojxona nazorat va rasmiylashtiruv jarayonlari O'zbekiston Respublikasining bojxona chegaralari orasidagi eng o'g'riqli nuqtalaridan biri hisoblanadi. Natijada, arzon va qulay transport vositasi hisoblangan temir yo'l poezdlarida harakatlanadigan yo'lovchilarning kamayishiga olib kelmoqda.

#### O'rganilganlik darajasi

O'zbekiston Respublikasi temir yo'l chegara bojxona posti orqali harakatlanayotgan jismoniy shaxslarga nisbatan quyidagi normativ-hujjatlarga asosan bojxona nazorati va rasmiylashtiruv tartibotlari amalga oshirilib kelmoqda:

1. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to'g'risida" gi 2023-yil 13-sentabrdagi 868-son Qonuni;
2. O'zbekiston Respublikasining Bojxona Kodeksi;
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining "O'zbekiston respublikasining davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlarida chegara, bojxona, sanitariya-karantin, fitosanitariya va veterinariya nazoratini tashkil etish tartibini yanada takomillashtirish to'g'risida" gi 2019-yil 18-noyabrdagi 912-son Qarori;
4. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 2-mayda ro'yxatdan o'tkazilgan "Temir yo'l transporti yo'lovchilarining qo'l yukini, bagajini, valyutasini va valyuta boyliklarini bojxona nazoratidan o'tkazish va rasmiylashtirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" ro'yxat raqami 3233-son Yo'riqnomasi;
5. Bojxona Qo'mitasining 2020-yil 11-maydagi 76-son buyrug'i.

#### Tahlil va natijalar

O'zbekiston Respublikasi hududida 4 ta temir yo'l chegara bojxona posti orqali jismoniy shaxslar harakatlanadi. Ular Qoraqalpog'iston Respublikasida "Qoraqalpog'iston" temir yo'l chegara bojxona posti, Surxondaryo viloyatida "Sariosiyo" temir yo'l chegara bojxona posti, Toshkent shahrida "Keles" temir yo'l chegara bojxona posti hamda Toshkent viloyatida "Bekobod" temir yo'l chegara bojxona postlarida xizmat olib boriladi. Mazkur temir yo'l bojxona postlarida Rossiya, Tojikiston va Qozog'iston yo'nalishlarida poezd qatnovlari mavjud. Shuningdek, yuqorida keltirilgan barcha temir yo'l chegara bojxona postlarida yo'lovchi poezdlar o'tkazish punkting o'zida, yo'lovchilar tashqariga tushirilmasdan, vagon ichkarisida tekshiriladi.

2023-yil yanvar oyidan 2023-yil 26-dekabr sanasigacha temir yo'l o'tkazish punktlari orqali harakatlangan fuqarolar soni\*

№	Post nomi	Harakatlangan fuqarolar soni		
		Kirish	Chiqish	Jami
1.	"Qoraqalpog'iston" temir chegara bojxona posti	109 010	139150	248 160

2.	Sariosiyo” temir yo’l chegara bojxona posti	42 684	28 152	70 836
3.	“Keles” temir yo’l chegara bojxona posti	96 486	107 210	203 696
4.	“Bekobod” temir yo’l chegara bojxona post	20 805	13 960	34 765

\*Manba: Ma’lumotlar Bojxona Qo’mitasining elektron bazasidan olindi. (murojaat qilingan sana: 26.12.2023)

2023-yil yanvar oyidan 2023-yil 26-dekabr sanasigacha temir yo’l o’tkazish punktlari orqali harakatlangan jismoniy shaxslarga nisbatan rasmiylashtirilgan bojxona kirim orderlari soni va umumiy summasi\*

№	Post nomi	BKO* lar soni	BKO larning jami summasi (ming so’mda)
1.	“Qoraqalpog’iston” temir yo’l chegara bojxona posti	455	600 186 914,39
2.	Sariosiyo” temir yo’l chegara bojxona posti	7	7 169 752,00
3.	“Keles” temir yo’l chegara bojxona posti	16	33 618 158,00
4.	“Bekobod” temir yo’l chegara bojxona post	0	0

\*Manba: Ma’lumotlar Bojxona Qo’mitasining elektron bazasidan olindi. (murojaat qilingan sana: 26.12.2023)

\* BKO-bojxona kirim orderi

2023-yil yanvar oyidan 2023-yil 26-dekabr sanasigacha temir yo’l o’tkazish punktlarida aniqlangan bojxona qoidabuzarliklari soni va umumiy summasi\*

№	Post nomi	BQB* lar soni	BQB larning jami summasi (ming so’mda)
1.	“Qoraqalpog’iston” temir yo’l chegara bojxona posti	51	284 788 760
2.	Sariosiyo” temir yo’l chegara bojxona posti	11	29 404 160
3.	“Keles” temir yo’l chegara bojxona posti	13	103 969 190
4.	“Bekobod” temir yo’l chegara bojxona post	20	400 210 500

\*Manba: Ma'lumotlar Bojxona Qo'mitasining elektron bazasidan olindi. (murojaat qilingan sana: 26.12.2023)

\* BQB-bojxona kirim orderi

Tahliliy ma'lumotlarga ko'ra temir yo'l chegara bojxona posti orqali harakatlanadigan jismoniy shaxslarning kamayishiga quyidagi omillar ta'sir etmoqda:

1. Temir yo'l chegara bojxona postlari orqali harakatlanadigan jismoniy shaxslarga nisbatan xavfni boshqarish tizimi tadbiiq etilmagan. Bu esa barcha jismoniy shaxslarga nisbatan bojxona nazorati shakllarini qo'llashni talab etib kelmoqda. Agar bojxona organlari temir yo'l chegarasi orqali harakatlanayotgan jismoniy shaxslar haqida oldindan ma'lumotga ega bo'lmasa, ularga nisbatan xavf darajalarini belgilay olmaydi va barcha jismoniy shaxslarni bojxona shakllaridan ayrimlarini qo'llagan holda tekshirishni talab etadi. Poezdda harakatlanayotgan yo'lovchilarga nisbatan poezdni tekshirayotgan bojxona xodimlarining soni ko'pligi bois, bojxona nazorati va rasmiylashtiruv jarayoni bir necha saotlarga chozilib ketmoqda.

2. Temir yo'l organi tomonidan yo'lovchilarning qo'l yuki va bagajlariga nisbatan qa'tiy amaliyot mavjud emasligi. Shu sababli, yo'lovchilar o'zlari bilan olib kelayotgan qo'l yuklari, bojxona organlari tomonidan belgilangan normadan ortib ketmoqda. Buning natijasida, yo'lovchilarning qo'l yuklari ko'pligi sababli, bojxona nazoratining uzoq muddat davom etishi, normadan ortiqcha yuklari uchun jismoniy shaxslardan bojxona to'lovlarning undirilishi oqibatida, jismoniy shaxslarning noroziligiga olib kelmoqda.

3. O'zbekiston Respublikasi orqali tranzit harakatlanayotgan yo'lovchi tashuvchi poezdlarga nisbatan alohida tartib ishlab chiqilmaganligi. Hozirda, O'zbekiston Respublikasi orqali Tojikiston davlatining yo'lovchi poezdlari harakat qilmoqda. Tranzit poezdlarda chegarani kesib o'tayotgan jismoniy shaxslarga nisbatan ortiqcha yuklari uchun bojxona to'lovlari undirilmasligi sababli, poezd brigadasi a'zolari va yo'lovchilar tomonidan O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari tomonidan undirilishi lozim bo'lgan tovarlarga bojxona to'lovlari undirilmasdan, O'zbekiston Respublikasi hududida mazkur tovarlarning tushirilib qolish holatlari kuzatilmoqda.

Xulosa va takliflar

O'zbekistonning turistik jozibadorligini oshirishda temir yo'l orqali harakatlanadigan jismoniy shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan bojxona nazorati va rasmiylashtiruv jarayonlarini optimallashtirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shuning uchun, temir yo'l chegara bojxona postlarida uchrayotgan jismoniy shaxslarga Yuqoridagi kabi muammoli masalalarni hal etish uchun xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini temir yo'l chegara bojxona postlariga tadbiiq etish maqsadga muvofiq.

Evropaning rivojlangan davlatlari sirasiga kiruvchi Belgiya davlatining temir yo'l chegaralari orqali o'tadigan jismoniy shaxslarga nisbatan bojxona organlari tomonidan qo'llaniladigan amaliyot o'rganib chiqildi. Ularning tajribasiga ko'ra, temir yo'l poezdlari orqali harakatlanayotgan yo'lovchilar to'g'risida temir yo'l kompaniyalari

tomonidan olindan beriladigan ma'lumotlar asosida xavfni profillarini ishlab chiqqan va har bir kelayotgan yo'lovchining xavf darajasi va yo'lovchiga nisbatan qo'llaniladigan bojxona nazorati shakllari Belgiya bojxona organlariga yo'lovchi kelmasidan ma'lum bo'ladi. Bunda poezd orqali kelayotgan ayrim yo'lovchilargagina bojxona nazorati shakllari olib borilishi, boshqa yo'lovchilarning vaqtini olmasligiga olib keladi. Bu tartib jahon amaliyotida "Yo'lovchi nomi qaydlari" (Passenger Name Records) deb nomlanadi.

Hozirgi vaqtda bu tizim Belgiyaning bojxona ma'muriyatlari va chegara idoralari tomonidan xavflarni boshqarish uchun foydalaniladi. Belgiya ushbu tizimni quyidagi tartibda amaliyotiga joriy etgan:

1. 2015-yilda Belgiya Federal hukumati PNR tizimini yaratishni aniqladi va "Yo'lovchi nomi qaydlari" dan nafaqat havo yo'llari orqali harakatlanayotgan yo'lovchilari, balki boshqa transport vositasi orqali chegarani kesib o'tayotgan yo'lovchilar uchun ham foydalanishni maqsad qilgan. Uning ustuvor yo'nalishlaridan biri avtomobil, dengiz yoki temir yo'l orqali sayohatchilar uchun ham mazkur tizimni ishga tushirish edi;

2. Belgiya bilan Buyuk Britaniyani bog'laydigan ushbu pilot loyiha Eurostarga e'lon qilindi;

3. Yo'lovchilar ro'yxati va ular haqida ma'lumot Federal politsiya, milliy xavfsizlik, harbiy razvedka va bojxona birgalikda ishlaydi, "Yo'lovchi ma'lumot bo'limi" ga yuborilib kelmoqda.<sup>17</sup>

Yana shuni ham ta'kidlash kerakki, agar ushbu tizim O'zbekiston temir yo'l chegarasida ishga tushiriladigan bo'lsa, kinologiya xizmatining ham sifatini oshirish lozim bo'ladi. Sababi, yashil yo'lak orqali harakatlanayotgan yo'lovchilar, ularning qo'l yuklari, bagajlari va vagon ichidagi tuyniklarida yashirilgan tovarlarni topishda xizmat itlaridan foydalanish eng samarali yo'l hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan ikkinchi masala yuzasidan xalqaro normativ-hujjatlar o'rganildi. 1952-yil 10-yanvardagi "Temir yo'l orqali harakatlanayotgan yo'lovchilar va yuklarni chegaradosh davlatlar orqali kesib o'tish tartib-taomillarini soddalashtirish to'g'risida"<sup>18</sup> gi xalqaro konvensiyada yo'lovchilarning o'zi bilan olib o'tayotgan bagajlari uchun alohida "bagaj vagon" lar qo'yilishi kerakligi keltirib o'tilgan. Lekin, "O'zbekiston temir yo'llari" AJ tomonidan O'zbekiston tashqarisiga yo'lovchilarni tashiydigan poezdlarda alohida "bagaj vagon" larning mavjud emas ha'mda yo'lovchilar o'zi bilan olib o'tadigan bagajlariga nisbatan qa'tiy tartib belgilanmagan. Bu esa, o'z navbatida yo'lovchilarning o'zi bilan olib o'tayotgan bagajlarining soni ko'payishi sababli bojxona nazoratining vaqtining chozilishiga va bojxona xodimlariga

<sup>17</sup> <https://www.wcoomd.org/-/media/wco/public/global/pdf/topics/facilitation/instruments-and-tools/tools/railway-guidance/railway-guidance.pdf?la=en>

<sup>18</sup> <https://unece.org/DAM/trans/conventn/passraile.pdf>

qiyinchilik tug'dirishiga olib kelyabdi. Yana yo'lovchi poezd orqali harakatlanayotgan turistlarga ham bu holat salbiy ta'sir etmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, temir yo'l chegara bojxona postlarida harakatlanayotgan jismoniy shaxslarning qo'l yuki va bagajlarini bojxona nazoratidan o'tkazishni optimallashtirish sifatida quyidagilar taklif sifatida berildi:

1. Temir yo'l chegara bojxona postlarida harakatlanayotgan jismoniy shaxslar,

ularning qo'l yuki va bagajlariga nisbatan xavfni boshqarish tizimini ishga tushirish;

2. Temir yo'l chegara bojxona posti orqali harakatlanayotgan yo'lovchi poezdlarga "bagaj vagon" larni qo'shish;

3. O'zbekiston hududi bo'ylab tranzit o'tib ketadigan yo'lovchi poezdlarga nisbatan nazorat tartib-taomillarini ishlab chiqish;

4. Har bir temir yo'l chegara bojxona postlarida har xil turdagi yashirilishi mumkin bo'lgan ashyolarni aniqlaydigan xizmat itlarini biriktirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi;

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston-2030" Strategiyasi to'g'risida" gi 2023-yil 11-oktabrdagi 158-son Farmoni;

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining "O'zbekiston respublikasining davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlarida chegara, bojxona, sanitariya-karantin, fitosanitariya va veterinariya nazoratini tashkil etish tartibini yanada takomillashtirish to'g'risida" gi 2019-yil 18-noyabrdagi 912-son Qarori;

4. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 2-mayda ro'yxatdan o'tkazilgan "Temir yo'l transporti yo'lovchilarining qo'l yukini, bagajini, valyutasini va valyuta boyliklarini bojxona nazoratidan o'tkazish va rasmiylashtirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" ro'yxat raqami 3233-son Yo'riqnoma.